

YOSHLAR MA'NAVIYATINI TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTNING O'ZIGA XOS O'RNI

Ibrohimov Hikmatulloh No'monjon o'g'li

Qo'qon Davlat Universiteti "Musiqali teatr aktiyorligi" yo'nalishi 1-bosqich talabsi

ibrohimovhikmatulloh@gmail.com

Avarov Otabek Rustambek o'g'li

Ilmiy rahbar "San'atshunoslik kafedrasi kata o'qituvchisi:

Anatatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar hayotida kitobning tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Kitobning inson tafakkuri, ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, yosh avlod tarbiyasida mutolaaning o'rni, ilm va ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hamda jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning ilm va tarbiya haqidagi qarashlari asosida kitobning yoshlar kamolotidagi o'rni asoslab berilgan. Maqolada, shuningdek, zamonaviy axborot vositalari davrida kitob mutolaasining ahamiyati alohida ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *Kitob, yoshlar, mutolaa, ilm, ma'rifat, tarbiya, ma'naviyat, tafakkur, dunyoqarash, komil inson, jamiyat taraqqiyoti, badiiy adabiyot, ilmiy meros.*

Kitob insoniyat taraqqiyotining asosiy manbalaridan biridir. U bilim, tarbiya va ma'naviyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har bir yuksalish davrida ilm va kitob asosiy o'rin egallaganini ko'ramiz. Qadimdan buyuk allomalar o'z bilim va tajribalarini kitob orqali keyingi avlodga meros qilib qoldirganlar. Ana shu meros tufayli bugun butun insoniyat taraqqiyotga erishmoqda. Darhaqiqat, kitob o'qish yoshlarning kelajak poydevorini yanada mustahkamlaydi. Yosh avlodning dunyoqarashi, qanday bo'lishi, qanday kitob o'qishiga bog'liq. Zero, yoshlar – jamiyatning ertangi kuni. Ularning ongli, bilimli va ma'rifatli bo'lib voyaga yetishi jamiyat ravnaqining asosiy omilidir.

Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanib, turli axborot vositalari keng tarqalgan bo'lsa-da, kitob o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Kitob inson tafakkurini o'stiradi, nutq boyligini oshiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Muntazam kitob o'qigan yoshlar hayotga ongli yondashadi, o'z oldiga maqsad qo'yadi va unga erishish yo'lida harakat qiladi.

Badiiy adabiyot inson qalbida ezgulik, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Ilmiy va ma'rifiy asarlar esa bilimni mustahkamlaydi, dunyoqarashni kengaytiradi. Shu bois, kitob yosh avlod tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi. Kitob insoniyat taraqqiyotining eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. U nafaqat bilim manbai, balki inson tafakkuri, ma'naviyati va ruhiy kamolotining asosiy vositasidir. Shu bois tarix davomida ko'plab allomalar kitob va ilm haqida chuqur va ibratli fikrlar bildirganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ilm va mutolaani yuksak qadrlagan. U

kishi asarlarida ilmni insonni komillikka yetaklovchi nur sifatida tasvirlaydi. Navoiy nazarida kitob – qalb xazinasini. Inson kitob o'qish orqali o'z qalbini boyitadi, fikrini tiniqlashtiradi va hayot ma'nosini chuqurroq anglaydi. Uning asarlarida ilmiy inson ulug'lanadi, jaholat esa qoralanadi. Bu esa kitobning inson hayotidagi beqiyos o'rnini ko'rsatadi.

Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy esa tarbiya va ilm masalasiga alohida e'tibor qaratgan. U: "Ilm – inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur", deya ta'kidlagan. Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud Axloq" nomli asarida shunday degan,⁵⁵ "Ilm deb o'qimay, yozmay yaxshi bilmay, har bir kerakli narsalarni o'rganmay aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur.

Zero, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratta mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur. Chunki ilmsiz kishilar ota onasiga, qarindosh-urug'iga, yor- do'stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafdin tursin o'z ustida lozim bo'lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qila olmas." Avloniy fikricha, yosh avlod tarbiyasi kitob va ta'lim orqali shakllanadi. Ilmiy jamiyatgina taraqqiy etadi, jaholat esa millatni orqaga tortadi.

Abdulla Avloniyning yana aytganidek "Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir". "Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi". Aytmoqchmanki, har bir odam yoshligidan kitob bilan tarbiyat topsa hayotidagi o'z o'rnini tezda topoladi. Va shuniham aytish kerakki hech narsa osonlik bilan bo'lib qolmaydi. Kitobga etish uchunham, kitobni o'qish uchun ham harakat kerak...

Barcha barchasiga xohish va harakat kerak, bari- barigaham. Kitob o'qiydigan odam ko'b narsalarni anglay oladi, va o'z vaqtida xulasa chiqara biladi. To'g'ri odamlar kitobsizham hayot mohiyatini va oldinda aytib o'tgan narsalarni anglashi mumkin, lekin menimcha, bu xildagi odamlar ko'b vaqtlarini o'tkazib va ko'b xatolar evaziga o'z dunyo qarashlarini va hayot tushunchalarini o'stiradilar. Aytishadiku, kimlardir boshlarini kitobdan ko'tarmay o'rganadilar kimlardir esa, boshlarini devorga urib o'rganadilar. Kitobda nima yoziladi? Kitobda, odamlarni boshidan o'tkazgan sinovlari va bu sinovlardan olingan saboqlar va bu saboqdan olingan xulosalar yoziladi ko'pincha.

Nima uchun?

Ya'ni doimiy yo odatda qilinadigan xotolar yana takrorlanmasligi uchun.

Bugungi yoshlar ko'proq telefon va ijtimoiy tarmoqlarga vaqt ajratmoqda.

Bu esa diqqatning bo'linishiga, yuzaki fikrlashga olib kelishi mumkin. Kitob esa aksincha – chuqur fikrlashni talab qiladi.

Mutolaa jarayonida inson o'z ichki dunyosi bilan suhbatlashadi, tafakkur qiladi.

⁵⁵ Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud Axloq" "Yoshlar matbuoti" TOSHKET-2024[112 b.] 28-b.

Dunyodagi ko'plab muvaffaqiyatli insonlar hayotida kitob muhim o'rin tutgan. Ular doimiy ravishda o'qish orqali o'z ustida ishlagan, bilimni boyitgan. Kitob insonni oddiy fikrlashdan ijodiy fikrlash darajasiga olib chiqadi.

Yoshlar uchun kitob – bu nafaqat bilim manbai, balki ruhiy quvvatdir.

U insonni tushkunlikdan olib chiqadi, umid beradi, yangi maqsadlar sari undaydi. So'zimni tojik she'riyati bilan yakunlamoqchiman ya'ni

"To ba chand doroyi lek ilmu hunar nadoniy,

Ey mardi nodoniy

Chun qalbi tu xob raftaast zeri poyi shaytoniy.

Dar xurdsoli omuz yak ilmu adab,

Chun dar oyandaat yak ilmu maqsad bidoriy."

Bu she'rni tarjimasi quyidagicha

"Qancha yoshga kirsangham lekin ilmli ziyoli bolmasang,

Ey nodon odam

Qalbing shayton poyidadir haliham.

Hozir yoshlikda o'rgan ilmni hunarni,

Keyin kelajakda bir ilmli maqsadli bo'lasan senham."

Xulosa qilib aytganda, kitob yoshlar hayotida beqiyos ahamiyatga ega. U insonni ma'naviy barkamollikka, ilmiy yetuklikka yetaklaydi.

Kitob o'qigan odam – ongli va maqsadli odamdir, kelajakka ishonch bilan qaraydigan odamdir. Har bir odam kitobni o'ziga do'st tutsa, jamiyatimiz yanada ravnaq topadi.

Chunki kitobli jamiyat – ma'rifatli jamiyatdir. Shunday ekan, keling, yoshlar qalbida kitobga mehr uyg'otaylik. Zero, kitob – kelajak poydevori, ma'naviyat chirog'i va muvaffaqiyat kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." – TOSHKENT

2. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" – TOSHKENT